



GO'SHT-TERI YO'NALISHIDAGI QUYON ZOTLARINI KO'PAYTIRISH VA SAQLASH SHAROITLARINI YAXSHILASH

**Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich, Xolbo'tayev Ilyosjon Rustam o'g'li,
Saydaliyeva Shahnoza Baxodir qizi, Qo'ldosheva Sumaniso Begzod qizi**
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti Toshkent filiali*

Annotatsiya: Yurtimizda quyonchilikka qaratilgan keng imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda mamlakatimizda quyonchilik rivojlantirish, quyonlarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, ularning mahsuldorligini oshirish, go'sht-teri yo'nalishidagi quyon zotlarini saqlash sharoitini to'g'ri yo'lga qo'ygan holda go'sht-teri yo'nalishidagi quyonlardan yanada ko'proq mahsulot olishning yangi innovatsion usullari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Zot, quyon, tovushqon, go'sht, tivit, namlik, harorat, mikroiklim, ventilatsiya, shamollatish, yorug'lik, silos, omuxta yem.

Аннотация: Изложены инновационные методы развития кролиководства в Узбекистане, основанные на рациональном использовании широких возможностей этой отрасли. Подчёркнута важность кролиководства в сельском хозяйстве, а также рассмотрены пути повышения продуктивности кроликов. Особое внимание уделено увеличению объёмов продукции от кроликов мясо-шкуркового направления при создании правильных условий их содержания.

Ключевые слова: Порода, кролик, кровь, мясо, тивит, влажность, температура, силос.

Abstract. In our country, new innovative methods of obtaining even more products from rabbits in the meat-skin direction are described, which, using the broad opportunities aimed at rabbit breeding wisely, will improve the importance of rabbits in agriculture, increase their productivity, and correctly establish the conditions for keeping rabbit breeds in the meat-skin direction.

Keywords: Breed, rabbit, blood, meat, silage, ventilation, wool.

Kirish

Quyonchilik chorvachilikning kelajagi porloq istiqbolli yo'nalishidir. Tez yetilishi va ko'payishi sababli quyonlar qisqa vaqt ichida ayniqsa yosh va kattalar uchun foydali parxezli go'shti, sanoat uchun tivit, mo'yna beradi. Quyonchilik-chorvachilik sohasi bo'lib, undan yengil sanoat uchun go'sht, teri, tiviti, dehqonchilik uchun kompost, biogumus, tibbiyot uchun tromboplastin, sitrat plazmasi, protoelektik fermentlar, qimmatli turli oqsillar, ona quyonlarning

sutidan olinadi. “Rucosent” preparati (uning ta’sir qiluvchi moddasi C1-esteraza ingibitori) va boshqa turdagi mahsulotlar yetishtiriladi. Yil davomida bir juft voyaga yetgan urg’ochi quyondan 8-9 marta bol olish mumkin. O’rtacha bir tug’ishda 7-9 quyon bolasi olinib, to’g’ri boqilsa bir oiladan yiliga 65-90 kg quyon go’shti, 65-75 dona teri va naslli mayin quyon zotlaridan esa quyon bolalari bilan birga qo’shimcha 1 kg tivit olish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi

Quyon zotlari: hozirda respublikamizda oq velikan, kulrang velikan, Rossiya morderi, shinshila, kapalaksimon, olmaxonsimon, kumushsimon, qora qO’ng’ir, vena zangori, flandr, reks, paltava, burgund, kaliforniya va boshqa zotli quyonlar boqilmoqda. Parvarishlash. Quyon boqiladigan joy zax va nam bO’lmasligi kerak. Quyon boqib, kO’p daromad olish uchun birinchi navbatda serpusht ona quyonlar sonini kO’paytirish lozim. Shundagina mahsulot (gO’sht, tivit, mO’yna) ning tannarxi arzonga tushadi va sifati yaxshilanadi. Quyon bolalari 60-65 kungacha onalarini emizib boqiladi va vazni 1,8-2,2 kg. ga yetishi bilan gO’shtga sO’yiladi. Quyonning 1 kg semirishi uchun O’rta hisobda 3,0-3,5 oziqa birligi sarflanadi. Bo’rdoqilangan quyonlarning gO’sht chiqimi 50-60 foizni tashkil etadi.

Tadqiqot obyekti

Quyonlarning saqlash sharoitini yaxshilash ulardan olinadigan mahsulotlarni sifatli va arzon bo’lishini ta’minlaydi. Quyonlarni kletkalarda saqlash ancha samarali va qulaydir. Chunki kletkalarda saqlanganda quyonlarni oziqlantirish, tagini tozalash, mikroiklimni saqlash oson, kasalliklar kam uchraydi va tez tarqalib ketmaydi. Hozirgi vaqtda ikkita quyonga mo’ljallagan ikki uyali quyonxonalardan foydalanilmoqda. Quyonlarni saqlashda bitta katak 0.5-0.7m² dan kichik bo’lmasligi zarur. Ikki uyali katakning uzunligi 200sm, eni 55sm, polidan shiftigacha 50sm bo’ladi, yerdan 70-80sm balandlikda, quyosh nuri tik tushmaydigan joyda bo’ladi. Katakning o’rtasida ikkala quyon uchun mo’ljallangan oxur (oziq solinadigan idish) bo’ladi, har bir quyon uchun alohida suv beriladigan idish bo’ladi. Bunday kataklarni yasash oson hamda arzonga tushadi.

Tadqiqot natijalari

GO’shtga sO’yiladigan quyonlarning tirik vazni O’rta hisobda 3–4 kg bo’ladi. Yangi tuqqan quyon kuniga 4-5 marta oziqlanadi. Asosan kO’k ozuqalar, jumladan, kO’k beda, makkajO’xori, bug’doy, qoqiO’t, qO’ypechak, poliz ekinlarining bargi, daraxt shoxlari, olma, tol va tok novdalarini xush kO’rib iste’mol qiladi. Quyonlarga suyak uni, bO’r ishlatilgan ohak, kartoshka, sabzi, lavlagi, nO’xat doni, arpa doni va qO’shimcha ravishda ovqatiga makroelementlar qO’shib beriladi. Quyonlarga beriladigan ozuqalarning 70 foizini konsentrat ozuqalar tashkil qiladi. Quyonlar sulii va arpani ham iste’mol qiladi. Arpa quyonlarga namlangan yoki shirali ozuqalarga aralashtirilgan holda beriladi. BO’g’oz quyonlar parvarishiga alohida e’tibor berish talab etiladi. Ularning ratsionini tinchlik davridagiga nisbatan bO’g’ozlik davrining boshida 30 foiz, oxirida esa 70 foiz kO’paytirish kerak.



Xulosa

Qishloq xo'jaligida go'sht-teri yo'nalishidagi quyon zotlari tug'ilganidan boshlab yashash sharoiti (mikroiqlim) yaxshi yo'lga qo'yilsa quyonlardan uzoq vaqt sifatli va arzon mahsulot mahsulot olish mumkin. Quyonxona yetarlicha yorug' bo'lishi kerak. Eshik va derazalar orqali tabiiy shamollatish va sun'iy ventelatsiya tizimi orqali hona harorati va namligi bir me'yorda ushlanishi lozim. Yorug'likning yetarlicha bo'lishi, namlik va haroratning bir me'yorda ushlanishi quyonlarda kechadigan fiziologik jarayonlarni bir me'yorda kechishi hamda teri va yungining sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://uz.m.wikipedia.org>
2. U.SH.Ballasov, Sh.Q.Mamatiminov "Quyunchilik" Toshkent-2016-yil.
3. R.I.Ruziyev, D.Q.Yuldashev, K.I.Xidirov, F.B.Bahriddinov, F.S.Allashev "Quyonlarni saqlash, oziqlantirish va naslchilik ishlari" Monografiya Fan Ziyosi Toshkent 2023.
4. Allashev.F. Mahalliy populyatsiyadagi quyonlarning o'sish dinamikasi. Ilmiy maqola India on July 21 ST 2022.